

## “MAKTABLARDA KOREYS TILI FANINING JORIY ETILISHI ,IMKONIYATLARI VA NATIJALARI

**Ubaydullayeva Kamola Shavkat qizi**  
“NEXT” MCHJ koreys tili fani o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada koreys tili fanining predmeti va vazifalari atroflicha ko`rib chiqiladi. Maqolada umumta`lim maktablarida koreys tili fanining joriy etilishi ,uning ta`lim tizimidagi ahamiyati va yoshlar rivojiga ta`siri yoritilgan. Maqolada koreys tili o`qitilishining maqsadlari ,amaliy ahamiyati va o`quvchilarda xorijiy tillarga bo`lgan qiziqishini oshirishdagi o`rni tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro do`stlik ruhini shakllantiridh masalalariga e`tibor qaratilib koreys tili fanining imkoniyatlari ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Koreys tili ,ta`lim tizimi,maktab fanlari,xorijiy til o`qitish,xalqaro hamkorlik, madaniyat .

**Annotation.** This article provides a comprehensive overview of the subject matter and objectives of the Korean language course. It highlights the introduction of the Korean language subject in general education schools, its role in the education system, and its impact on youth development. The paper analyzes the goals and practical significance of teaching Korean, as well as its role in increasing students' interest in learning foreign languages. In addition, the article focuses on fostering the spirit of international friendship and demonstrates the educational opportunities created by the inclusion of the Korean language in the curriculum.

**Keywords:** Korean language, education system, school subjects, foreign language teaching, international cooperation, culture.

### KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o`rganish zarurati ortib bormoqda. Shunday tillardan biri — koreys tili bo`lib, u O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasidagi do`stona aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

So`nggi yillarda ushbu tildan foydalanish sohasi kengaygani sababli, uni umumta`lim maktablari tizimiga kiritish masalasi dolzarb sanaladi. Mazkur maqolada koreys tili fanini maktab ta`limiga joriy etish zarurati va uning ta`lim tizimidagi ahamiyati haqida so`z yuritiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi manbalar asosiy o`rinni egallaydi:

- Koreys tili ta`limiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar hamda darsliklar.
- Xalqaro tajribalarni yorituvchi Koreya Respublikasi ta`lim standartlari.
- Xorijiy tillarni o`qitish metodikasiga doir ilmiy izlanishlar.

Ushbu maqolada koreys tili fanining maktab ta'limidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish uchun taqqoslovchi tahlil, kuzatuv va tahliliy umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Metodologik yondashuv sifatida tajribaviy va tahliliy ma'lumotlardan foydalanilib, koreys tili fanining ta'lim tizimidagi samaradorligi o'rganildi..

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tadqiqot davomida koreys tili fanining maktab ta'lim tizimiga joriy etilishi o'quvchilarning xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Mazkur fan orqali o'quvchilar nafaqat yangi tilni o'rganadilar, balki Koreya Respublikasi madaniyati, qadriyatlar va ta'lim tizimi bilan tanishadilar.

Shuningdek, koreys tilini chuqur o'rganayotgan o'quvchilar kelajakda xalqaro darajadagi sertifikatlar ega bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida o'qish yoki ish faoliyatini xorijda davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, koreys tili fanining joriy etilishi yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi.

Asosiy vazifalar:

- Umumta'lim maktablarida koreys tili fanini joriy etishning maqsad va zaruratini aniqlash.
- Koreys tili fanining o'quvchilarga lingvistik, madaniy va ijtimoiy ta'sirini o'rganish.
- Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha xalqaro tsajribalarni tahlil qilish va ularni ta'lim tizimiga moslashtirish .
- Koreys tili fanini o'rganish orqali yoshlarni xalqaro sertifikat olishga va xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish imkoniga tayyorlash.

### **XULOSA**


Koreys tili fani, nafaqat o'quvchilarning xorijiy tilni o'rganish imkoniyatini kengaytiruvchi vosita, balki ularning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy saviyasini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, koreys tili fanining umumta'lim maktablariga joriy etilishi o'quvchilarda xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishni oshiradi, xalqaro muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi va madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, koreys tilini chuqur o'zlashtirgan o'quvchilar xalqaro sertifikatlar ega bo'lish, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qish yoki ish faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur fan ta'lim tizimining sifatini oshirish va yoshlarni zamonaviy, raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Chet tillar ta'limi konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Kim, H. & Park, J. Korean Language Education for Foreign Learners. – Seoul: Hankuk University Press, 2019.



- 
3. Cho, S. Modern Approaches to Teaching Korean as a Foreign Language. – Seoul, 2021.
  4. Yun, M. Intercultural Communication through Korean Language Education. – Busan, 2020.
  5. Ubaydullayeva K. Umumta'lim maktablarida koreys tili fanining joriy etilishi va uning ahamiyati. – Toshkent, 2025.

